

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

## БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

*мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция*

## МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА)** мавзусидаги Республикао микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

### **Масъул муҳаррир:**

**БухДУ профессори, тарих фанлари доктори**

**Ҳ.Ҳ.Тўраев**

### **Таҳрир хайъати ва аъзолари:**

О.Х.Ҳамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор  
Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор  
А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент  
Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент  
С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.  
М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н  
М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н  
Ф.Ҳ.Бобожонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н  
А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)  
Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)  
О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,  
Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

### **Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:**

**Темиров Ф.У.** – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири  
**Умаров Б.Б.** – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси  
**Носиров Ш.Ў**– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги  
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,  
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг  
ўзлари масъул ва жавобгардир*

**BUXORO TUMANIDAGI ETNOTOPONIMLAR TARIXI**

**A'zam Boltayev**

**Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi**

**kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**

**azam.boltaev.2015@mail.ru (99) 702-31-15**

**Hamroyev Bekzod**

**BuxDU, Tarix yo'nalishi 4 kurs talabasi**

Buxoro tumani va uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Quvonarlisi shundaki, Buxoroyi sharifda neki mavjud bo'lsa, Buxoro tumaniga ham daxldordir. Zero, Buxoro shahri tumanning "yuragi"dan o'rin olgan. Tumanning barcha qishloqlari shahar atrofida joylashgan. Tumandan o'tgan hamma yo'llar Buxoro shahriga borib tutashadi. Shimol tomondan Vobkent, Romitan, g'arbdan Jondor, janub tarafdin Kogon tumanlari bilan chegaradosh. Buxoro tumanining hozirgi hududi amirlik davridagi Shimolirud va Poyirud nomli tarixiy tumanlar chegaralariga to'g'ri keladi. Tuman Buxoro shahrining shimoliy, janubiy va g'arbiy hududlarini o'z ichiga olib, uning hozirgi joylashuvi ham deyarli o'sha holatda saqlanib qolgan.

XX asrning boshida Buxoro tumani hududida 515 ta katta-kichik qishloq mavjud edi. Yillar davomida ularning ko'plari katta qishloqlarga birlashib ketdi. Ayni paytda tuman aholisi 162 mingdan ziyod bo'lib (2019), bitta shahar (Galaosiyu) hamda 12 qishloq fuqarolar yig'ini bor. Aholining milliy tarkibi xilma-xil. O'zbek, tojik, turkman, qozoq, rus va boshqa 10 dan ortiq millatlar ahil yashaydilar. Shuning uchun joy nomlari ham rang-barang.

Buxoro tumanida ham boshqa joylardagi kabi etnotoponimlar ko'p bo'lib, quyida shular haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Alotxona etnotoponim bo'lib, tumanning Losha mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Toponim ikki qismdan iborat: *alot+xona*. Alot so'zi *arlot/allot/olot* shakllariga yega. Arlot qabila nomining dialektik talaffuzidir. Xona so'ziga "uy yoki binoning devor bilan ajratilgan har bir alohida qismi, bo'lma" deb ta'lif beriladi.

Arlot etnonimi X.Doniyorov tadqiqotida olot tarzida qayd yetilgan. S.Qorayev "arlot qabilasi 92 bovli o'zbek qavmlaridan" biri sifatida qayd qilinadi. Abulg'ozu Bahodirxonning fikricha, arlot so'zining asl ma'nosi "o'z onasining sevgan o'g'li" demakdir. Xulosa qilib, arlot urug'i vakillari yashaydigan maskan degan ma'noni anglatadi.

Arabxona etnotoponimi tumanning So'fikorgar, Turkon, Amirobod Guliston mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi aholi punkti bo'lib, arab qavmlariga mansub aholi istiqomat qilgan qishloq. Bu toponim respublikamizning ko'p hududlarida uchraydi. Bir tumanning o'zida bir necha qishloq shu nom bilan ataladi. Arablarning Movarounnahrqa kelib qolishi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Milodning VII-VIII asrlarida arablarning Movarounnahrqa yurishlari davrida Damashq va Bag'dod arablarining bir qismi mamlakatimiz hududlariga kelib o'rnatilib oldilar. Shuningdek, Buxoro tumanining o'zida Arabxonayibolo, Arabxonayipoyon nomi ostidagi qishloqlar ham uchraydi.

Movarounnahrda sayyidlar va xo'jalar o'z kelib chiqishlarini arablar bilan bog'laganlar va buni sharaf deb hisoblaganlar. Sayyidlar-payg'ambar avlodlari sanalsa, xo'jalar-arab noiblarining avlodlari hisoblangan. XV-XVI asrlarda arablarning Movarounnahrqa ikkinchi kichik migratsiyasi yuz berdi. Bunda asosan Yaman arablari salmog'i yuqori bo'ldi. Ushbu migratsiyaning sababi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Arablar o'tgan asrning 60-70-yillarigacha o'z tillarini saqlab qoldilar. G'ijduvon tumanidagi Jogari arablarining ayrim vakillarini hisobga olmaganda, bugungi kunga kelib ular o'z ona tili – arab tilini unutilganlar va mahalliy aholi bilan aralashib ketganlar. Bir tumanda Arablar, Arabxona deb ataluvchi bir necha qishloq bo'lishidan qat'iy nazar, har birining nomini alohida holda saqlab qolish maqsadga muvofiq. Chunki ularning har birida etnik arablar yashaydi.

Afg'onon etnotoponimi tumanning Amirobod Guliston mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan. Aslida afg'onlar tarzida yozilishi va talaffuz qilinishi kerak. Turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar natijasida so'ngi o'rta asrlarda Buxoro vohasiga kelib qolgan afg'onlar

Buxoro shahri va atrof qishloqlarida savdo-sotiq hamda sipohiylik bilan shug'ullanishgan. Qadimdan iqtisodiy, madaniy aloqalar ikki millat o'rtasida rivojlanib borgan.

Turkon etnotoponimi turklar ma'nosida, ya'ni turkiyzabon aholi yashaydigan joy. Ushbu joy nomi turk etnotoponimiga tojikcha ko'plik ko'rsatgichi - "on" qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Turk – bir qancha turkiy qabila va urug' birlashmasidan tashkil topgan umumiy nomdir.

Kalon toponimi tumanning Shergiron mahalla fuqarolar yig'ini hududida bo'lib, turkiy qavmlardan bo'lgan qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali va oyinni bo'limlariga qarashli urug' nomlari kal deb yuritilgan. Uning qo'plikda qo'llanishidan esa Kallon-Kallar nomi yuzaga kelgan. Kalon demak, kal "urug'i vakillari yashaydigan joy" ma'nosini ifodalaydi.

Mang'iton yoki Mang'it etnotoponimi ya'ni, mang'itlar istiqomat qilgan qishloq degan ma'noni anglatadi. Mang'itlarning ajdodlari XIII asr boshlarida Mo'g'uliston hududida yashagan. XIII asr davomida Dashti Qipchoqqa kelib o'rnamshganlar. XIII-XIV asrlarda mang'itlarning katta qismi Volga va Ural daryolari oralig'ida joylashib oladi. Shu davr mobaynida qipchoqlar ta'siri ostida o'z tillarini unutilib turk-qipchoq tilini qabul qilishadi. Keyinchalik ular o'zbeklar, qoraqalpoqlar va qisman qozoqlarning etnik tarkibiga kiradi. Mang'itlar hozirgi O'zbekiston hududiga XVI asrda ko'chib o'tadi va o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Ular Buxoro xonligining siyosiy hayotida katta mavkega ega bo'lib, hukmron sulola darajasiga ko'tariladi va 1753- 1920-yillarda Buxoroni idora qiladi. Bu toponim Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Shuning bu nomdagi toponim O'zbekistonning ko'plab joylarida uchraydi. Mang'it oltoy tiliga tegishli so'z bo'lib, mo'g'ulcha shakli – "myangad" ya'ni, minglar demakdir.

Муғилон туманининг Қавола Маҳмуд маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида жойлашган бўлиб, икки қисмдан муғил+он: (мўғуллар) иборат. Tilshunos D. Abdurahmonov fikricha, mo'g'lon etnonimidan mug'lon toponimi yuzaga kelgan deydi. Mo'g'ullar istilosi natijasida turli mo'g'ul qabilalari hozirgi O'zbekistonning bir qancha hududlariga o'rnamshgan va bu hududlarda mo'g'ullar yashaydigan manzillar paydo bo'lgan. Mahalliy aholi ularning o'z xalqi nomi bilan atay boshlashgan va bu keyinchalik mo'g'ullar istiqomat qilayotgan joyga nisbatan qo'llanilgan.

Urganjixona bu joy So'fikorgar mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan. Urganji etnonimi asosida paydo bo'lgan. S.Qorayev "urganjilar Xorazm poytaxti Urganchni Chingizxon yer bilan yakson qilib tashlagandan keyin Buxoro tomonga kelib o'rnamshib qolgan hunarmandlarning avlodlari. Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, XVII asr oxirlarida Urganchdan ketib Buxoro va boshqa yerlarga o'rnamshgan o'zbeklar" degan ma'lumotlarni qayd qiladi. H.To'rayev ma'lumotlariga ko'ra, Urganchlik aholi bir qismining Buxoro vohasiga ko'chib o'tishi ikki bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchisi, Muhammad Xorazmshohning Malik Sanjar qo'zg'olonini bostirish uchun 1206-yil Buxoroga yurishi davrida kelib qolgan urganchlik aholi. Ikkinchi bosqich, XVII asrda Xiva xoni Abulg'ozzi Bahodirxon va Anushaxon hujumlari davrida vohada o'rinlashgan urganchliklardir.

Chopiq toponimi ham So'fikorgar mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan. S.Naimov Chopiq Buxoro va Qorako'l tumanlaridagi toponim ekanligini qayd qilib, pomiqlik turkman urug'laridan biri chopiq ekanligini ta'kidlaydi. T. Nafasov ham chopiqning pomiqlik turkmanlar urug'i ekanligini, uning chopiq, chopig', chopuq, chopug' shaklidagi ko'rinishlari borligini qayd qiladi.

Shexon yoki Shexoncha tumandagi mahalla fuqarolarining nomi bo'lib, mazkur toponim shix/shex – turkiy urug' ekanligi, turkman va o'zbek xalqlarining shix/shex urug'i borligi haqidagi ma'lumotlar manbalarda keltirilgan. Professor X.Doniyorovning "O'zbek xalqining shajara va shevalari" nomli monografiyasida bu toponim haqida so'z yuritilib, unda ko'rsatilgan 91-raqam ostidagi shix o'zbek urug'i qayd qilingan. Shexoncha – shixlarning kichik manzili, kichik qishloq degan ma'noni anglatgan.

O'zbekon etnotoponimi o'zbeklar ko'p istiqomat qiladigan joyni tojikzabon aholi "o'zbekon", ya'ni "o'zbeklar" deb talaffuz qilgan. Aslida "o'zbekon" tarzida yozish va talaffuz qilish kerak. O'zbek etnotoponimiga tojikcha ko'plik ko'rsatgichi "on" qo'shimchasini qo'shish

orqali yasalgan. O'zbek millatiga mansub kishilar yashaydigan qishloq. Toponim kishilarning etnik belgisi asosida vujudga kelgan.

Yobuxona etnotoponimi yobu qavmi nomidan olingan joy nomi. Yobu (jobu) qabilalari Zarafshonning o'rta va quyi oqimi, Qashqadaryo vohasiga tarqalgan. Yobg'u so'zining qisqarma shakli deb hisoblangan taqdirda, turkiy qabila hukmdorlarining unvonidan hosil bo'lgan toponimga aylanadi. Yuk tortuvchi ot fors-tojik tilida "yobu" deyilgan. Atamaning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqiladigan bo'lsa, Yobuxona yuk tortuvchi otlarga ega aholi yashagan qishloqqa qarata ishlatilgan toponim bo'lib chiqadi. O'rta asrlarda quruq yer, bo'sh maydon "yobis" so'zi bilan ifoda etilgan. Ushbu so'zning atamaga aylangan bo'lishi mumkinligini ham inobatga olish kerak, deb o'ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda, tumanda joy nomlari talaygina biz sizlar tumandagi etnotoponimlar haqida ma'lumot berib o'tishga harakat qildik. Har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan joyining nomini bilishi zarur bo'lganidek, o'zining qaysi urug'dan ekanligini, qaysi etnik tarkib borib taqalishini ham bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 114 b.
2. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шаражаси ва шевалари. – Тошкент: Наврўз, 2017. 134 б.
3. То'rayev H. Buxoro toponimikasi. – Buxoro: Durdona, 2021. – 260 b.
4. A'ZAM B. ABOUT THE TOPONYM "BUKHARA". International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(4), (2021). 36-41.
5. Болтаев А.Х. Бухоро шаҳри 11 дарвозасининг тарихи ва тақдири (ўлкашунос ТФ Гелах тадқиқотларида). Тюркоязычные страны. Республиканский научно-методический и познавательный журнал. Алматы, 2, (2018). 6-8.
6. Болтаев А. СН Юренев илмий меросида ўлкамиз тарихи масалалари. центр научных публикаций (buxdu.uz), (2023). 28(28).
7. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 320 b.
8. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. 240 б.
9. Ражабов О.И., Болтаев А.Х. XX аср 40-йиллари Бухорода ташкил қилинган илмий экспедиция. *Ўтмишга назар| Взгляд в прошлое| Look to the past*, 6, (2021) 30-36.
10. Болтаев А.Х., Самандарова Н.З. Роль краеведческих кружков в воспитании молодёжи. *Вестник магистратуры*, (5-3 (116)), (2021). 63-64.
11. Baltayev A. History of Ancient Monuments in Registan Bukhara. (2023).

## **BUXORONING SOMONIYLAR MARKAZIGA AYLANISHI MASALASI**

**Umarov Baxtishod**  
**Buxoro davlat universiteti**  
**tayanch doktoranti**  
[\*\*b.b.umarov2019@buxdu.uz\*\*](mailto:b.b.umarov2019@buxdu.uz)

Somoniylar davlati IX asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan bo'lib, davlat sifatida X asrning oxiriga qadar saqlanib turdi. Somoniylar sulolasining kelib chiqishi Somonxudotning nomi bilan bog'liq. Manbalarga qaraganda Somonxudot dastlab yirik yer egasi hisoblangan va Somon qishlog'ida oqsoqollik qilgan. Dastlab somonxudot musulmonlardan bo'lmagan va keyinchalik islom dinini qabul qilgan. Aynan Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro shahri har tomonloma o'sdi va O'rta Osiyoning markaziy shahri sifatida nufuzi ortdi.

Somonxudot Abbosiy xalifalari hokimiyatni qo'lga olgan vaqtlardanoq ularning xizmatiga kirgan edi. Asad va Asadning o'g'illari ham xalifa Ma'mun saroyida xizmat qilishgan. 806-yilda Movarounnahrda ko'tarilgan Rofe ibn Lays qo'zg'olonini bostirishga bergan yordami uchun xalifa Ma'munning farmoni bilan Asadning o'g'illari 819-yilda Movarounnahr va Xurosonning turli viloyatlariga noib etib tayinlandi. Jumladan, Nuh Samarqandni, Ahmad

**О.Х.Хамидов. Қадимий ва ҳамиша навқирон Бухоро илм-фан ва маданият ўчоғи.....3**

Сулаймон Иноятов. БУХОРО ФИДОЙИ ЖАДИДЛАРИ ҲАРАКАТИ: ТАРИХ ВА ТАҚДИР .....5

Фаррух Темиров, Раъно Раҳимова. БУХОРО ВИЛОЯТИ, ЖОНДОР ТУМАНИДА ЖОЙЛАШГАН “УШОТ” ВА “СОМОНЧУҚ” ҚИШЛОҚЛАРИ ТАРИХИ ҲАҚИДА .....15

A.N. Boltayev, O.I. Rajabov. PROFESSOR N.N.TO‘RAYEV – BUXORO TARIXI TADQIQOTCHISI .....17

Фаррух Темиров. 2023 йилнинг 20 сентябрда Бухоро давлат музей кўриқхонаси ва Бухоро давлат университетиде “Бухоро тарихи масалалари: тарихий – маданий меросимизни ўрганимиз” мавзусида Республика миқёсидаги илмий семинар ва унинг натижалари хақида .....19

**1-ШЎҒБА. БУХОРОНИНГ ҚАДИМГИ, ИЛК ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ (АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, ШАҲАРСОЗЛИК, ИЛМ-ФАН, САНЪАТ ВА МАДАНИЯТ).....22**

Отахўжаев Азимхўжа Музаффарович. БУХОРОНИНГ ҚАНҒ ДАВЛАТ УЮШМАСИДАГИ ЎРНИ.....22

Комилжон Раҳимов. ЎРТА АСРЛАРДА БУХОРОДА КУТУБХОНАЛАР ВА КИТОБ ДЎКОНЛАРИ ВА УЛАРДАГИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ .....25

Shodiyeva Shahlo Soliyevna, Umedov Xurshidbek Jamshid o‘g‘li. SO‘G‘D KONFEDERATAYASIDA DAVLAT BOSHQARUVI .....29

Очилов Алишер Тўлис ўғли. ПОЙКЕНТ МУЗЕЙИ - АНТИК ВА ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРИХИДАН СЎЗЛОВЧИ МУЗЕЙ .....33

Даминов Набижон Абдуолимович. ДОБУСИЯ ҚАЛЪАСИ ТАРИХИ.....36

Вафоёева Сарвиноз Умиджон қизи, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORO VOHASINING ILK SHAHARLARI:POYKENT VA VARAXSHA .....40

Narzulloev Farrux, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORONING ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLAR TARIXI (POYKENT MISOLIDA) .....42

Шокирова Ферангиз Фурқат қизи, Rajabov Oybek Iskandarovich. ILK O‘RTA ASRLARDA DAVLATCHILIK VA BOSHQARUV .....45

Islamova Qunduz. BUXORONING QADIMGI, ILK VA O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI MASALALARI.....47

Hikmatova Salomat Hamza qizi, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORONING ZAMONBOBO YODGORLIGI MODDIY MADANIYATI.....49

A‘zam Boltayev, Hamroyev Bekzod. BUXORO TUMANIDAGI ETNOTOPONIMLAR TARIXI.....51

Umarov Baxtishod. BUXORONING SOMONIYLAR MARKAZIGA AYLANISHI MASALASI.....53

Juraqulov Muhammadamin Shohtamovich. SOMONIYLAR DAVRIDA KUTUBXONA VA KITOBDORLIK TIZIMI .....56

Samaneh Khalili Far, Abbas Iqbal Mehran. INVESTIGATING THE ROLE OF SAMANI RULERS IN THE ART OF PAINTING IN THE SCHOOL OF BUKHARA .....60

Narimonov Murodillo Ismat og‘li, Utayeva F.X. SOMONIYLAR DAVLATIDA ILM-FAN, MADANIY HAYOT VA DIN .....71

Ozodova O‘g‘iloy Davron qizi, S.A.Toshtemirova. QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHRIDA SHAHARSOZLIKNING RIVOJLANISHI .....73

Xo‘jageldiyev Ibodulla Mamaradjab o‘g‘li. BUXORO ME‘MORCHILIGI.....74

Shodiyeva Shahlo Soliyevna. AMIR TEMURNING OILASI VA OILAVIY HAYOTI: HOKIMIYATINING GENEALOGIK LEGITIMLASHUVI.....78